TARIX

UDK 327:94(575.1470)19-21 DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a88

ERNAZAR MAQSUD O‘G‘LI ELCHILIGIGA OID TADQIQOTLAR TAHLILI

АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ ОБ ПОСЛЕ ЭРНАЗАР МАКСУД ОГЛУ

ANALYSIS OF RESEARCHES ABOUT AMBASSADOR ERNAZAR MAKSUD OGLU

Rahmonqulova Zumrad Boyxo‘razovna[1], Hamrayev Sunnatillo Allaberdiyevich[2]

[1]Rahmonqulova Zumrad Boyxo‘razovna — O‘zbekiston milliy universiteti, Tarix fakulteti, prof.
[2]Hamrayev Sunnatillo Allaberdiyevich — O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, Tarix instituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Buxorodan Rossiyaga yuborilgan Ernazar Maqsud o‘g‘li elchiligining sabablari, maqsadi, vazifalari hamda natijalarining turli davrlarda yaratilgan tadqiqotlarda yoritilishi tahlil etilgan. Tadqiqotda Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligining o‘zaro diplomatik munosabatlarni o‘rnatish va mustahkamlashda mazkur elchilikning ahamiyati hamda ikki davlatning o‘zaro munosabatlardan ko‘zlagan manfaatlari aks etgan. Maqolada elchilikning amalga oshrilgan bosqichlari, tarkibi va qisqacha tarixi mavjud tadqiqotlar asosida bayon etiladi. Elchilikning tarixshunosligi Rossiya imperiyasi, sovet davri va mustaqllik davri adabiyotlarini qamrab olgan holda amalga oshirilgan. Tarixshunoslik tahlili elchilikning tashkil etilishi sababi, undan ko‘zlangan maqsad hamda elchilik natijalarining yoritilishiga e’tiborni qaratadi. Shuningdek, elchilikning ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar rivojidagi ahamiyati turli davrda yaratilgan tadqiqotlarda yoritilishi nuqtai nazarlari tahlil qilingan. Tadqiqotlarda elchilikdan ikkala davlatning manfaatlari o‘rganilishining qiyosiy tahlili olib borilgan. Bundan tashqari, mazkur diplomatik aloqalardan istiqbolda ko‘zlangan maqsadlar xususidagi tadqiqotchilarning mulohazalari o‘rganildi. Ushbu elchilikka oid tarixiy jarayonlarga turli davrlarda chop qilingan tadqiqotlardagi yondoshuvlar tahlili va ularning ilmiy tanqidi amalga oshirilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются на основе литературы разных периодов причины, цель, задачи и итоги посольство Эрназара Максуд угли из Бухары в России. В исследовании так же изучается история установлении между Российской империи и Бухарском эмиратом и выгода от этих дипломатических отношении. В статье описывается история этапы посольства, состав и краткая история на основе анализа литературы разных периодов. Анализ историография посольства осуществлена на основе литературы имперского, советского периодов и эпохи независимости. В историографическом анализе рассматривается такие вопросы как причины посольства, цели и его итоги. К тому же рассматривается вопрос роль данного посольство в развитие дипломатических отношениях. Был произведен сравнительный анализ проблемы политических интересов двух государств от этого посольство. Кроме этого изучено выводы исследователей о перспективных планах развитие дипломатических отношений. Осуществлен историографический анализ и научная критика исследований разных периодов.

Abstract

This article analyzes on the basis of literature of different periods the reasons, purpose, tasks and results of the Embassy of Ernazar Maksud ugli from Bukhara in Russia. The study also examines the history of relations between the Russian Empire and the Emirate of Bukhara and the benefits of these diplomatic relations. The article describes the history of the Russian Embassy, its composition and brief history based on the analysis of literature from different periods. The historiography of the Embassy is based on the literature of the Imperial, Soviet and independence periods. The historiographical analysis examines such issues as the reasons for the Embassy, its goals, and its results. In addition, the issue of the role of this Embassy in the development of diplomatic relations is being considered. A comparative analysis of the problem of political interests of the two States was made from this Embassy. In addition, the authors studied the conclusions of researchers about the long-term plans for the development of diplomatic relations. Historiographical analysis and scientific criticism of the research of different periods are carried out.

Kalit so‘zlar: *Ernazar elchi, Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, diplomatik munosabatlar, Yekaterina II, savdo aloqalari, savdo boji, Ernazar elchi madrasasi, YE. Pugachev, strategik maqsadlar.*

Ключевые слова: *посол Эрназар, Бухарский эмират, Российская империя, дипломатические отношения, Екатерина II, торговые отношения, торговая пошлина, медресе посла Эрназара, Е.Пугачев, стратегические цели.*

Key words: *Ambassador Ernazar, Emirate of Bukhara, Russian Empire, diplomatic relations, Catherine II, trade relations, trade duty, madrasah of Ambassador Ernazar, E. Pugachev, strategic goals.*

KIRISH

1753-yilda Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi inqirozidan so‘ng yangi – mang‘itlar sulolasi hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Mamlakat ichkarisida siyosiy tartib o‘rnatib, o‘z hokimiyatini

mustahkamlab olgan yangi sulola vakillari tashqi siyosiy aloqalarni ham yaxshilashga intildi. Rasmiy Buxoro hukumati qo‘shni davlatlar qatorida Rossiya imperiyasi bilan ham diplomatik munosabatlarga qayta kirishadi. Ta’kidlab o‘tish joizki, mang‘itlar hukmronligi boshlanguniga qadar Buxoro-Rossiya o‘rtasidagi so‘nggi elchilik aloqalari ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xoni Abulfayzxon tomonidan yuborilgan. Bu elchilik 1737-1740 yillardagi Xo‘ja Muhammad elchiligi edi. Mang‘itlar tomonidan esa, dastlabki elchilik Rossiyaga 1774-yilda yuborildi.

Buxoro amirligi tomonidan Rossiya imperiyasiga jo‘natilishi ko‘zda tutilgan elchilikka Mulla Ernazar Maqsud o‘g‘li (ba’zi manba va adabiyotlarda Ernazarbiy, Domullo Ernazar Elchi, Ernazar Maksutov ismi bilan ham qayd etilgan – S.H.) bosh qilib tayinlangan edi[1].

Ernazar Maqsud o‘g‘li diplomatik topshiriqni bajargunga qadar savdo maqsadida (1745 yildan boshlab) va imperator saroyiga turli xil xizmatlar ko‘rsatish yuzasidan bir necha marta Rossiyaga borgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, savdo ishlari barobarida Ernazar Maqsud o‘g‘li Rossiya imperatori va saroy ayonlarining e’tiborini qozonadi hamda ularning O‘rta Osiyoga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi. Shu bois u Rossiya imperatori Petr III dan, Erondan Makkaga o‘tuvchi yo‘l xavfli bo‘lganligi sababli buxoroliklarning Astraxan orqali Haj ziyoratiga borishini so‘ragan. Qolaversa, ziyoratchilarni ibodat qilishlari uchun Astraxanda Rossiya imperiyasi hisobidan masjid qurib berilishini iltimos qiladi[2]. Ushbu omillar uning keyingi elchilik faoliyati davrida o‘ziga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ushbu savdogar ikki marotaba Rossiyaga yuborilgan rasmiy elchilikka boshchilik qilgan. Birinchi elchilik 1774–1776-yillarda, ikkinchi elchilik 1779-yilda amalga oshirilgan[3]. U ikkinchi elchilik missiyasini yakunlagach Rossiyadan Usmonli Turklar davlati orqali Makkaga o‘tishni so‘raydi va Makka safaridan qaytib kelayotganida Ko‘nya shahrida yuqumli kasallikdan vafot etadi[4]. Mulla Ernazar shaxsining Buxoro amirligi va Rossiya o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilishida va keyingi rivojida hissasi hamda o‘ziga xos ahamiyati borligi bir qator tarixiy taqiqotlarda ta’kidlab o‘tilgan. Fikrimizni Ernazar elchi shaxsi haqida ma’lumot bergan Yakovlevning: “Ernazar barcha buxoroliklar kabi aqlli va ayyor odam, mohirlik bilan bizning hukumatimiznig ishonchini qozondi”[5] – degan, so‘zlari tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur elchilik tafsilotlariga bag‘ishlangan adabiyotlarni, tarixiy ilmiy bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoniga ko‘ra, davriy jihatdan uch guruhga bo‘lish mumkin. Bunday yondashuv bizga muammoni turli davrlarda qayday nuqtai nazardan va qay yo‘sinda tadqiq etilganligini kuzatish imkonini beradi.

Birinchi guruh – Rossiya imperiyasi[6], ikkinchi guruh – sovet[7] va uchinchi guruh – mustaqillik[8] davrlarida chop qilingan elchilikka oid maxsus tadqiqotlarni hamda mavzuga u yoki bu darajada to‘xtalib o‘tilgan izlanishlar mavjudligini ko‘rish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu elchilikka oid tarixiy jarayon va unga oid tafsilotlar hamda faktlarga doir yondashuvlarni, asosan, uch muhim jihatlariga e’tibor qaratish lozim, deb o‘ylaymiz. Xususan, elchilikning tashkil etilishi sabablari va vazifalari, undan ko‘zlangan maqsadlarga erishilganligi ya’ni – natijalari, elchilikning ikkala taraf uchun ahamiyati hamda keyingi siyosiy, strategik maqsadlarda tutgan o‘rnini tadqiq etish maqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Birinchi guruh – Rossiya imperiyasi davri tadqiqotlarida Buxorodan Rossiyaga uzoq tanaffusdan keyin elchi jo‘natilishining sabablari avvalo, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning qayta tiklanishida yoki o‘rnatilishida Buxoro amirligi tashabbuskor bo‘lganligi, bundan asosan Buxoro manfaatdor ekanligi nuqtai nazaridan yondoshilgan. Jumladan, Yakovlev tomonidan 1824 yil “Sibirskiy vestnik” to‘plamida “Mulla Irnazar Maksyutov, poslannik buxarskiy” nomi bilan chop qilingan maqola elchilik haqidagi tadqiqotlarning dastlabkisi hisoblanadi. Muallif Ernazarbiyning birinchi elchiligi sababi sifatida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. Yakovlevning ta’kidlashicha, buxorolik savdogarlar mol-mulki Rossiya hududida qirg‘izlar (qozoqlar – S.H.) va qo‘zg‘olonchi YE. Pugachevning odamlari tomonidan talab ketiladi. Savdogarlar tomonidan ko‘rilgan zararni undirib berishini Ernazarbiy elchiligi Rossiya hukumatidan so‘raydi va buxoroliklar uchun qulay bo‘lgan savdo yo‘lining xavfsizligini ta’minlash masalalarini muhokama qilish uchun Buxorodan Rossiyaga elchi qilib yuborilganini ta’kidlaydi[9]. Savdo yo‘llarining xavfsizligini ta’minlash masalasida Orenburg va umuman Rossiya imperiyasiga Mang‘ishloq orqali emas, qirg‘iz cho‘lidan xavfsiz

o‘tish haqida so‘z yuritilgan. Rossiya hukumati mazkur hududda savdogarlarni himoya qilish uchun istehkom qurishni taklif qilgan. Ushbu taklifga Ernazar Maqsud o‘g‘li, quriladigan istehkom har doim qirg‘izlar xavfi ostida qolishi va buxoroliklarda shubhalar o‘yg‘otishi mumkinligi sababli uni rad etganligi ta’kidlanadi[10].

Shu o‘rinda ushbu, istehkomni qurish masalasini keyingi davr tadqiqotlari bilan qiyoslanganda, ba’zi ma’lumotlarda nomutanosiblik mavjudligi qo‘zga tashlanadi. Xususan, tadqiqotchi X.G‘ulomov o‘zining monografiyasida: “Elchining fikricha, Emba daryosi bo‘yida agarda to‘satdan zarur bo‘lib qolsa savdo karvonlari boshpana topishi mumkin bo‘lgan rus istehkomining qurilishi maqsadga muvofiq”[11] deb, ta’kidlangan. Mazkur masala yuzasidan X.G‘ulomov ma’lumotlari arxiv materiallarga asoslanganligi tufayli Yakovlev ma’lumotlariga nisbatan ishonchliroq deb hisoblash mumkin. Shunday bo‘lsa-da, diplomatik munosabatlarga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlarda istehkom qurish masalasi tadqiq etilishini talab qiladi.

Ikkinchi elchilikning sababi sifatida, yana buxorolik savdogarlarning talanishi oqibatida ko‘rilgan zararni undirish hamda buxoroliklarning Rossiya orqali Konstantinopol (Istanbul – S.H.) va undan Makkaga o‘tish uchun ruxsat berish masalalari keltirilgan[12].

Rossiya imperiyasi davriga oid tadqiqotlarda elchilikning sabablari asosan bir tomonlama yondashuv asosida yoritilgan. Elchilikning yuborilishida asosiy e’tibor savdogarlarning talanishi, savdo yo‘li xavfsizligining ta’minlanishi kabi masalalarga qaratilgan. Diplomatik munosabatlar o‘rnatilishidan Rossiya tarafining manfaatdorlik jihatlari, ikkala davlat uchun ham foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan, keyingi siyosiy jarayonlarda ushbu elchilikning tutgan o‘rni kabi masalalarga e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, tadqiqotlarda elchilik ko‘zlagan maqsadlariga erishganligi xususida savdogarlarning talonchilikdan ko‘rgan zararlari undirib berilmaganligi, ammo elchi katta sovg‘alar bilan ortga qaytganligi, Yekaterina II tomonidan tortiq qilingan hadyalar hisobiga Buxoroda madrasa bunyod etilganligi faxr bilan ta’kidlanishi bilan kifoyalanilgan[13].

Ernazar Maqsud o‘g‘li elchiliklarining Yakovlev, S.V. Jukovskiy tadqiqotlarida qisqa hamda bir tomonlama yondashuvini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, P.P. Shubinskiy tomonidan elchilikni ikkala taraf uchun ahamiyati hamda keyingi siyosiy, strategik maqsadlarda tutgan o‘rni haqida ayrim e’tiborga loyiq mulohazalar yuritilgan. Jumladan, birinchi elchilik vaqtida Ernazarbiyning Moskvada Usmonli Turklar davlati elchisi bilan bir necha bor uchrashganligi ta’kidlangan. Ushbu uchrashuvlar davomida Buxoro amirligi va Usmonli Turklar davlati o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatish hamda O‘rta Osiyolik ziyoratchilarni Xiva va Astraxan orqali Makkaga, janubiy rus chegaralari va Qora dengiz orqali Konstantinopol va Anatoliyaga o‘tish haqida suhbatlashilgan[14]. Tadqiqotchi P.P. Shubinskiy mazkur suhbatning Usmonli Turklar davlati va Buxoro o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarga ta’siri haqida bir qator mulohazalarni ilgari suradi. Xususan, Turk sultoni Buxoro xoni huziriga elchi jo‘natgani va bunga javob elchiligi aynan Ernazarbiy va uning o‘g‘li boshchiligida 1779-yil yuborilganligi ta’kidlanadi[15]. Shuningdek, elchi avval Rossiyaga kelib, dastlabki elchilikdagi so‘rovidan keyin ham qoplab berilmagan savdo karvonining talonchilikdan ko‘rgan zararini undirib berish va Buxoro hukumati uchun zarur bo‘lgan 3000 ming pud[16] mis so‘rash uchun kelganligini bayon qiladi[17].

P.P.Shubinskiy Ernazar elchining Sharqiy Osiyo bilan G‘arbiy Yevropa savdo munosabatlarini Kaspiy qirg‘oqlaridan Qora dengiz va Boltiq dengizi orqali o‘tgan oldingi yo‘nalishlariga qaytarish g‘oyasi bo‘lgani haqida so‘z yuritadi. Shuningdek, ushbu g‘oya Ernazarbiyning vafoti va Rossiyaning tashqi siyosatidagi boshqa dolzarb masalalarga e’tibor qaratishi tufayli amalga oshmadi deb, ta’kidlaydi[18].

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslangan holda, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar faqatgina savdo-iqtisodiy masalalarni emas, balki, siyosiy ahamiyat ham kasb etganligini ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu davrga oid tadqiqotlarda mazkur elchilik ahamiyati faqatgina Buxoroning Rossiya bilan savdo qilishga intilishi nuqtai nazaridan talqin qilingan. Ammo, mazkur davrga oid tadqiqotlar tahlili bir qancha savollarni tug‘diradi. Xususan, nima uchun Rossiya Buxoro bilan yaxshi munosabatlarda bo‘lish uchun Buxoro tarafi so‘ragan deyarli barcha iltimoslarni bajardi? Nega Rossiya hukumati tomonidan elchilik rahbari Ernazarbiyga alohida e’tibor belgilari (elki Rossiyaga yetib kelishi uchun qulay sharoitlar yaratishga intildi, uning jo‘nab ketishi uchun yaxshi jihozlangan kema sovg‘a qilindi) qaratildi? Bu jarayonlarda Rossiya manfaatdorligida qanday maqsadlar yotibdi? Nima uchun Buxoroda Imperator mablag‘iga Ernazar elchi madrasasi

bunyod etildi. Mazkur savollar mavjud manbalarni tahlili va yangi manbalarni jalb etilishi vositasi orqali keyingi tadqiqotlarda o‘z yechimini topishi lozim.

Ta’kidlab o‘tish joizki, Rossiya imperiyasi davriga oid ba’zi tadqiqotlarda mazkur elchilik haqida ayrim chalkash fakt va mulohazalar ham keltiriladi. Xususan, N.Ostroumov[19] o‘z maqolasida elchilik haqida qisqacha to‘xtalib o‘tadi, ammo undagi tarixiy jarayonni o‘rganilishiga oid ma’lumotlar haqiqatdan yiroq hamda elchilik natijalariga oid fikrlar muhim ahamiyat kasb etmaydi.

Sovet davriga oid tadqiqotlarda Ernazar Maqsud o‘g‘li elchiligi haqidagi ma’lumotlar arxiv materiallari asosida yoritilgan bo‘lib, ilmiy nuqtai nazardan qimmatli hisoblanadi. Bunda elchilik sabablari yuqoridagi davrda ko‘rsatilgan sabablarga qo‘shimchalar va yondashuvning biroz o‘zgarganligini kuzatish mumkin. Xususan, tadqiqotchi H. Ziyoyev birinchi elchilik ikki davlat o‘rtasidagi savdo aloqalari rivojiga bo‘lgan to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan deb ta’kidlagan. Shuningdek, u Rossiyaning Buxoroga uch ming pud mis va qurol-yarog‘ sotib olishga ruxsat berish so‘ralganligini qayd etadi[20]. Ikkinchi elchilik sabalari esa oldingi davr ma’lumotlari bilan deyarli bir xil, ammo Rossiya chegaralari va Usmonli Turklar davlati orqali Makka shahriga o‘tish so‘ralganligi to‘g‘risida kam ma’lumot berilgan.

H. Ziyoyev masalaga o‘zaro munosabatlarning faqatgina Buxoro uchun emas, balki Rossiya uchun ham ahamiyatli jihatlari mavjudligini ta’kidlayd. Qolaversa tadqiqotchi muammoga Buxorolik savdogarlarning Rossiya bilan Sharq davlatlari o‘rtasidagi aloqalarda muhim ahamiyat kasb etishi tarafidan yondoshgan. Xususan, H. Ziyoyev fikricha: “Orenburg orqali O‘rta Osiyo bilan Rossiya o‘rtasidagi savdoda buxorolik savdogarlar salmoqli o‘rinni egallab katta foyda olayotgan edilar. O‘z navbatida rus hukumati o‘zining O‘rta Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlari bilan aloqasida buxorolik savdogarlarning tutgan muhim o‘rnini yaxshi anglar edilar”[21]. Qolaversa, H. Ziyoyev Rossiya hukumati mablag‘iga Buxoroda madrasa qurilishidan maqsadi o‘zbek xonliklarida Rossiyaning qudratini namoyish qilish va uning ta’sirini kuchaytirish edi deb, ta’kidlaydi[22]. Mazkur fikrlar mavzuga aloqador tadqiqotlar ichida dastlabki shunday yondashuv bo‘lganligi bilan e’tiborlidir.

H. Ziyoyev o‘zining boshqa bir tadqiqotida Rus hukumati elchi mulla Ernazar Maqsudovga hali hech bir osiyolikka berilmagan imtiyoz va hadyalar berganligini e’tirof etadi. Shu sababdan elchilar munosib kutib olinib, iloji boricha barcha iltimoslari rag‘batlantirilishiga urinilganligi ta’kidlanadi. Rossiya hukumati tomonidan buxorolik savdogarlar talanishidan ko‘rilgan zarar undirib berish haqidagi so‘rov bajarilmaganligi bu ishning iloji bo‘lmaganligi bilan izohlanadi[23]. Ernazar Maqsud o‘g‘lining o‘ziga savdo uchun kema ajratilib, ma’lum miqdordagi mollar va savdo hajmi uchun bojsiz savdo imtiyozining berilishi, chetga sotilishi qat’iy nazorat qilinidigan temir va mis kabi mahsulotlarning Buxoroga yuboriladi[24]. Bunday imtiyozlar berilishi Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi bilan o‘zaro munosabatlardan manfaatdor ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi X. G‘ulomovning “Posolskiye svyazi Buxarskogo xanstva s Rossiyey v XVIII veke” nomli nomzodlik dissertatsiyasida elchilikning maqsadi siyosiy ahamiyat kasb etganligi haqida o‘rinli mulohazalar ilgari surilgan. Xususan, ikkinchi elchilikning asosiy maqsadi savdogarlarning talanishi va buxoroliklarning Makkaga o‘tishi emas balki, Usmonli Turklar davlati bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlash istagi yuzasidan amalga oshirilganligi ta’kidlananadi[25].

Mazkur davrda Ernazar Maqsud o‘g‘li elchiligi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni o‘rganishda ikki tomonning manfaatlari yetarli darajada aks ettirilmagan. Rossiyaning Buxoro bilan o‘zaro diplomatik aloqalardan ko‘zlagan maqsadlari to‘g‘risida aniq mantiqiy mulohazalar berila boshlangan. Buxoroning Usmonli Turklar davlati bilan rus chegaralaridan o‘tib aloqa bog‘lashiga ruxsat berilishidan Rossiyaning manfaatlari haqida so‘z yuritilmagan.

Mustaqillik yillarida Rossiya va O‘rta Osiyo davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni tadqiq qilgan X. G‘ulomov[26] hamda O‘rta Osiyo davlatlarining Rossiya bilan Kaspiy-Volga bo‘ylari va Orenburg orqali elchilik aloqalarini tadqiq qilgan H. Ziyoyev[27] tomonidan Buxoro amirligi va Rossiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning vujudga kelishi va uning rivojlanishida Mulla Ernazar Maqsud o‘g‘li elchiligining ahamiyati haqida avvalgi davr tadqiqotlariga nisbatan batafsilroq ma’lumotlar taqdim qilingan. Tadqiqotlar ma’lumotlari bir qator adabiyotlar hamda ko‘pgina arxiv ma’lumotlaridan foydalangani bilan qimmatli hisoblanadi.

Ushbu davr tadqiqotlarida ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarda Buxoroning teng munosabatlarga kirishgani aks ettirilishi bilan xususiyatili hisoblanadi. Xususan, H. Ziyoyevning Rossiyaga qarashli kazaklarning qaroqchi guruhlari tomonidan karvonlarning talanganligi va bunga daxldor kishilarni topib, mollarni egalariga qaytarilishi talab qilinganligi[28] haqidagi mulohazalari fikrimizni tasdiqlaydi. Elchilikning bir nechta sabablari keltirilib, jumladan, Buxoro xonining boj to‘lovini kamaytirish, Ernazar elchining Buxoro uchun zarur bo‘lgan po‘lat va qo‘rg‘oshin undirish masalalarini hal etishi muhim vazifalar sifatida ko‘rsatiladi[29].

X. G‘ulomov tadqiqotida Buxoro amirligining ko‘chmanchilar tomonidan talangan mollarning zararini undirib berishni Rossiya imperiyasidan so‘ralishi ortida qozoq qabilalarini Rossiya yurisdiksiyasiga o‘tganligini tan olinishi ekanligini qayd etadi[30]. Ushbu fikr mavzu tarixshunoslida birinchi bor o‘rtaga tashlanganligi bilan e’tiborlidir.

Ammo shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mazkur davr tadqiqotlarida ham elchilikka oid tarixiy jarayonlarning asosan Buxoroning tashabbuskorligi hamda manfaatlariga asosiy e’tibor qaratilganligini ko‘rish mumkin. Zero, Rossiya imperiyasi Buxoro hukumatining deyarli barcha so‘rovlarini qanoatlantirishi ortida qanday maqsadlar yotganligi mavhum qoldirilgan.

Elchilik tarixi bilan bevosita bog‘lik bo‘lgan, Buxoroda Rossiya imperiyasi mablag‘iga bunyod etilgan madrasa tarixi ham ushbu guruh tadqiqotlarida tahlil etilgan[31].

Shuningdek, aynan bir xil masalalar xususidagi ayrim raqamlarda tafovutlar mavjud. Jumladan, birinchi elchilikdan keyin Ernazar Maqsud o‘g‘lining o‘ziga berilgan bojsiz savdo qilish to‘g‘risidagi imtiyoz shartlari bunga misol bo‘la oladi. Ya’ni, tadqiqotlarning aksariyatida bojsiz savdo qilish hajmi 10 ming rublgacha[32], boshqa bir tadqiqotda 9 ming rublgacha[33] bo‘lgan mollar (ba’zi tadqiqotlarda ayrim mollar ro‘yxat keltiriladi[34])ga, imtiyozning amal qilishi davomiyligi 5 yil deb ko‘rsatilgan bo‘lsa[35], ba’zilarida 10 yil muddatgacha[36], yana ayrimlarida 5 yildan 10 yilgacha[37] bo‘lgan davrda deb, qo‘rsatilgan. Ushbu ma’lumotlar turli arxiv hujjatlari asosida tayyorlangan bo‘lib, mazkur masala yuzasidan olib boriladigan keyingi tadqiqotlarda xilma-xillikni izohlash yoki to‘g‘risini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo‘lsak, elchilikni tarixiy ahamiyatini tadqiqotlarda yoritilishi Buxoro uchun birinchi elchilik natijasida Rossiya bilan diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, mamlakatda yuqori ehtiyoj bo‘lgan tovarlarni olib kelish imkoniyatining yaratilishi bilan baholash o‘rinlidir. Ikkinchi elchilikning asosiy ahamiyatli jihati esa, Rossiya bilan savdo aloqalarining rivojlanishi va u orqali Usmonli Turklar davlati va Sharqiy Yevropa davlatlariga chiqish imkoniyatining vujudga kelishidir.

Ernazar elchi faoliyatining tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki birinchi va ikkinchi guruh tadqiqotlarda diplomatik munosabatlarga yondashuv asosan bir taraflama bo‘lib, o‘zaro munosabatlarda Rossiyaning manfaatlariga e’tibor qaratilmagan. Uchunchi guruh tadqiqotlarida Rossiya manfaatlari ham biroz tilga olinadi.

Mavzuga doir barcha tadqiqotlar rus manbalariga tayangan holda olib borilganligi, mahalliy manbalardan foydalanilmagan bo‘lib, ushbu holat mazkur mavzu yuzasidan yangi tadqiqotlar olib borishni taqozo yetadi. Mavzuga oid Rossiya arxivlarida saqlanuvchi manbalarni mahalliy manbalar bilan qiyosiy tarzda tahlil etish va hozirgi kungacha yaratilgan tadqiqotlarni tizmili tahlil qilish Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarining vujudga kelish tarixini yangi jihatlarni ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент.: Фан, 2005. 167-бет. (Gulomov H.G. Diplomatic relations of Central Asian states with Russia in the XVIII - the first half of the XIX century. Tashkent, Fan. 2005. Pp. 167.)

2. Ўша асар. 166-167-бетлар. (that work. Pp. 166-167.)

3. Яковлев. Мулла Ирназар Максютов, посланник бухарский // Сибирский вестник. Ч. I. 1824. 7–10-бетлар; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг., 1915. 88–89-бетлар; Гуломов Х. Дипломатические отношения государств Средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент.: Фан, 2005. 67, 173, 178-бетлар. (Yakovlev. Mullah Irnazar Maksyutov, the Bukharian Envoy // Siberian Bulletin. Ch. I. 1824. Pp. 7-10.; Zhukovsky S.V. Russia's relations with Bukhara and Khiva over the last tercentenary. Pg., 1915. Pp. 88-89.; Gulomov H. Diplomatic relations of the Central Asian states with Russia in the XVIII – first half of the XIX century. Tashkent.: Fan, 2005. Pp. 67, 173, 178.)

4. Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II // Исторический вестник, № 2. 1897. 518-538-бетлар. (Shubinsky P.P. Bukharian embassies at the court of Catherine II // Historical Bulletin, No. 2. 1897. Pp. 518-538.)

5. Яковлев. Мулла Ирназар Максютов, посланник бухарский // Сибирский вестник. Ч. I. 1824. 7-10-бетлар. (Yakovlev. Mullah Irnazar Maksyutov, the envoy of Bukhara // Siberian Bulletin. Ch. I. 1824, Pp. 7-10.)

6. Яковлев. Мулла Ирназар Максютов, посланник бухарский // Сибирский вестник. Ч. I. 1824. 7-10-бетлар; Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II // Исторический вестник, № 2. 1897. 518-538-бетлар; Остроумов Н. Бухарския и Хивинския посольства въ Россию и русския посольства въ Бухару и Хиву (Историческа параллель) // Туркестанский сборник Т. 436. 1907; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг., 1915. (Yakovlev. Mullah Irnazar Maksyutov, the Bukhara Envoy // Siberian Bulletin. Ch. I. 1824. Pp. 7-10.; Shubinsky P.P. Bukharian embassies at the court of Catherine II // Historical Bulletin, No. 2. 1897. Pp. 518-538.; Ostroumov N. Bukharian and Khiva embassies to Russia and Russian embassies to Bukhara and Khiva (Historical parallel) // Turkestan collection Vol. 436. 1907; Zhukovsky S.V. Russia's relations with Bukhara and Khiva over the last tercentenary. Pg., 1915.)

7. Муҳаммаджонов А.Р. Нематов Т. Бухоро ва Хеванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. Тошкент: 1957; Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX асрлар). Тошкент.: Фан, 1965; Матвиевский П.Е. О роли Оренбурга в русско-индийской торговле в XVIII в. // История СССР. М., 1969. №3; Зияев Ҳ. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. Тошкент.: Фан, 1973; Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. Ташкент.: Фан, 1982; Гуламов Х.Г. Посольские связи Бухарскоо ханства с Россией в XVIII веке. Дисс. канд. ист. наук. Ташкент.: 1984. (Muhammadjanov A.R. Nematov T. Some sources on the history of Bukhara and Heva's relations with Russia. Tashkent: 1957; Ziyaev H. Central Asia and the Volga regions (second half of the 16th – 19th centuries). Tashkent.: Fan, 1965.; Matviyevsky P.E. On the role of Orenburg in the Russian-Indian trade in the XVIII century. // History of the USSR. M., 1969. No. 3; Ziyaev H. XVIII century Asia and the Urals. Tashkent.: Fan, 1973; Mikhaleva G.A. Trade and embassy relations of Russia with Central Asian khanates through Orenburg. Tashkent.: Fan, 1982; Gulamov H.G. Embassy relations of the Bukhara Khanate with Russia in the XVIII century. Diss. Candidate of Historical Sciences. Tashkent.: 1984.)

8. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент.: Фан, 2005; Ўша муаллиф. История дипломатических отношений государств Средней Азии с Россией (XVIII – первая половина XIX вв.). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук. Ташкент.: 2006.79-бет; Хайруллаев М.М. ва бошқ. Ўзбек дипломатияси тарихидан тарихий очерк ва лавҳалар. Тошкент.: 2003; Агзамова Г.А. Некоторые вопросы культурно-духовной жизни городов Среднеазиатских ханств// Культура номадов Центральной Азии: материалы Международной конференции, Самарканд 22-24 ноября 2007 г. Самарканд.: издание МИЦАИ, 2008. 34-40-бетлар; История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века) / Отв. ред. Д.А. Алимова. Ташкент.: ФАН, 2012; Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. Тошкент.: 2014; Джурабаев. Дж. Бухарский эмират второй половины XVIII – первой половины XIX вв. в письменных источниках. Дисс. канд. ист. наук. Худжанд.: 2014; Murat O'zkan. Buhara, Petersburg ve Istanbul arasinda diplomasi trafiği: Molla Irnazar Maksutov elçiliği // Gazi Türkiyat, Bahar 2019 / 24. 165-183-бетлар; Раҳмонқулова З.Б. XVI-XX аср бошларида Ўрта Осиё ва Усмонийлар давлатлари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий ва маданий муносабатлар тарихи. Тошкент. 2021.

(Gulomov H.G. Diplomatic relations of the Central Asian states with Russia in the XVIII – first half of the XIX century. Tashkent.: Fan, 2005.; That author. History of diplomatic relations of the Central Asian states with Russia (XVIII – first half of the XIX centuries). Dissertation in the form of a scientific report for the degree of Doctor of Historical Sciences. Tashkent.: 2006.P.79.; Khairullaev M.M. and bask. Uzbek diplomacy tarikhy essay and tablalar. Tashkent.: 2003; Agzamova G.A. Some questions of the cultural and spiritual life of the cities of the Central Asian khanates// Culture of the nomads of Central Asia: materials of the International Conference, Samarkand, November 22-24, 2007. Samarkand.: edition MITSAI, 2008. Pp. 34-40.; History of Uzbekistan (XVI – the first half of the XIX century) / Ed. by D.A. Alimova. Tashkent.: ФАН, 2012; Ziyoev H. History of the Embassy relations of Uzbekistan to Russia through the Caspian Volga and Orenburg (second half of XVI - XIX century). Volume I T. 2014; Jurabaev. J. Bukhara Emirate of the second half of the XVIII – first half of the XIX centuries in written sources. Diss. Candidate of Historical Sciences. Khujand.: 2014; Murat O'zkan. Diplomatic traffic between Bukhara, St. Petersburg and Istanbul: the embassy of Mullah Irnazar Maksutov // Gazi Turkiyat, Spring 2019 / 24. Pp. 165-183. Rakhmankulova Z.B. The history of socio-political and cultural relations between the countries of Central Asia and the Ottomans in the XVI-early XX centuries. Tashkent. 2021.)

9. Яковлев. Мулла Ирназар Максютов, посланник бухарский // Сибирский вестник. Ч. I. 1824. 7-10-бетлар. (Yakovlev. Mullah Irnazar Maksyutov, the envoy of Bukhara // Siberian Bulletin. Ch. I. 1824, Pp. 7-10.)

10. Ўша асар. 8-бет. (That work. Pp. 7-10.)

11. Гуломов Х.Г. История дипломатических отношений государств Средней Азии с Россией (XVIII – первая половинв XIX вв). Дисс. док. ист. наук. Ташкент.: 2005. 43-бет. (Gulomov H.G. History of diplomatic relations of the Central Asian states with Russia (XVIII – first half of the XIX centuries). Dissertation in the form of a scientific report for the degree of Doctor of Historical Sciences. Tashkent.: 2006. P.79)

12. Яковлев. Мулла Ирназар Максютов, посланник бухарский // Сибирский вестник. Ч. I. 1824. 7-10-бетлар. (Yakovlev. Mullah Irnazar Maksyutov, the envoy of Bukhara // Siberian Bulletin. Ch. I. 1824, Pp. 7-10.)

13. Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II // Исторический вестник. № 2. 1897. 518-538-бетлар; Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг., 1915. 89-бет. (Shubinsky P.P. Bukharian embassies at the court of Catherine II // Historical Bulletin. No. 2. 1897. Pp. 518-538; Zhukovsky S.V. Relations of Russia with Bukhara and Khiva for the last tercentenary. Pg., 1915. P. 89.)

14. Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II // Исторический вестник. № 2. 1897. 518-538-бетлар. (Shubinsky P.P. Bukharian embassies at the court of Catherine II // Historical Bulletin. No. 2. 1897. Pp. 518-538)

15. Ўша асар. 8-бет. (That work. Pp. 518-538)

16. Пуд – рус ўлчов бирлиги тизимига кирувчи эскирган оғирлик ўлчов бирлиги. 1 пуд 16,380496 килограммга тенг бўлган. (The Pud is an obsolete unit of weight measurement that is part of the Russian unit of measurement system. The 1 pud weighed 16,380,496 kilograms.)

17. Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II // Исторический вестник. № 2. 1897. 518-538-бет. (Shubinsky P.P. Bukharian embassies at the court of Catherine II // Historical Bulletin. No. 2. 1897. Pp. 518-538)

18. *Батафсил қаранг:* Ўша асар... 518-538-бет. (*See more:* That work. Pp. 518-538)

19. Остроумов Н. Бухарския и Хивинския посольства въ Россию и русския посольства въ Бухару и Хиву (Историческа параллель) // Туркестанский сборник Т. 436. 1907. 72-бет. (Ostroumov N. Bukharian and Khiva embassies to Russia and Russian embassies to Bukhara and Khiva (Historical parallel) // Turkestan Collection Vol. 436. 1907. P. 72.)

20. Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX асрлар). Тошкент: Фан, 1965. 77-бет. (Ziyaev H. Asia and the Volga region (XVI century ikkinchi - XIX century). Tashkent: Fan, 1965. P. 77.)

21. Зияев Ҳ. XVIII асрда Ўрта Осиё ва Урал бўйлари. Тошкент: Фан, 1973. 27-бет. (Ziyaev H. Central Asian and Ural boyars in the XVIII century. Tashkent: Fan, 1973. P. 27.)

22. Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX асрлар). Тошкент: Фан, 1965. 80 бет. (Ziyaev H. Asia and the Volga region (XVI century ikkinchi - XIX century). Tashkent: Fan, 1965. P. 80.)

23. Ўша асар. 79-80 бетлар. (That work. Pp. 79-80.)

24. Ўша асар. 79-бет. (That work. P. 79.)

25. Гулямов Х.Г. Посольские связи Бухарского ханства с Россией в XVIII веке. Дисс. канд. ист. наук. Ташкент: 1984. 147-бет. (Gulyamov H.G. Embassy relations of the Bukhara Khanate with Russia in the XVIII century. Diss. Candidate of Historical Sciences. Tashkent: 1984. P. 147.)

26. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент: Фан, 2005. (Gulomov H.G. Diplomatic relations of the Central Asian states with Russia in the XVIII – first half of the XIX century. Tashkent: Фан, 2005.)

27. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. Тошкент: 2014. (Ziyoev H. History of the Embassy relations of Uzbekistan to Russia through the Caspian Volga and Orenburg (second half of XVI - XIX century). Volume I T. 2014)

28. Ўша асар. 35-бет. (That work. P. 35)

29. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург о-рқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. Тошкент: 2014. 48-бет. (Ziyoev H. History of the Embassy relations of Uzbekistan to Russia through the Caspian Volga and Orenburg (second half of XVI - XIX century). Volume I T. 2014.)

30. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств средней Азии с Россией в XVIII – первой половине XIX века. Ташкент: Фан, 2005. 175-бет. (Gulomov H.G. Diplomatic relations of the Central Asian states with Russia in the XVIII – first half of the XIX century. Tashkent: Фан, 2005. P. 175.)

31. *Бу ҳақида қаранг:* Агзамова Г.А. Некоторые вопросы культурно-духовной жизни городов Среднеазиатских ханств// Культура номадов Центральной Азии: материалы Международной конференции, Самарканд 22-24 ноября 2007 г. Самарканд.: издание МИЦАИ, 2008. 34-40-бетлар; История Узбекистана (XVI – первая половина XIX века) / Отв. ред. Д.А. Алимова. Ташкент.: ФАН, 2012. 565-бет. (See about this: Agzamova G.A. Some questions of the cultural and spiritual life of the cities of the Central Asian khanates// Culture of the nomads of Central Asia: materials of the International Conference, Samarkand, November 22-24, 2007. Samarkand.: edition MITSAI, 2008. Pp. 34-40.; History of Uzbekistan (XVI – the first half of the XIX century) / Ed. by D.A. Alimova. Tashkent.: ФАН, 2012;)

32. Жуковский С.В. Сношения России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. Пг., 1915. 89-бет.; Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX асрлар). Тошкент.: Фан, 1965. 79-бет; Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. Тошкет.: 2014. 48-бет. ва бошқ. (Zhukovsky S.V. Russia's relations with Bukhara and Khiva over the last tercentenary. Pg., 1915. P. 89.; Ziyaev H. Asia and the Volga region (XVI century ikkinchi - XIX century). Tashkent: Фан, 1965. P. 79.; Ziyoev H. History of the Embassy relations of Uzbekistan to Russia through the Caspian Volga and Orenburg (second half of XVI - XIX century). Volume I T. 2014. P. 48.)

33. Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II // Исторический вестник. № 2. 1897. 518-538-бетлар. (Shubinsky P.P. Bukharian embassies at the court of Catherine II // Historical Bulletin. No. 2. 1897. Pp. 518-538.)

34. Зиёев Ҳ. Ўзбекистоннинг Каспий-Волга бўйлари ва Оренбург орқали Россия билан элчилик алоқалари тарихи (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX аср). I жилд. Тошкет.: 2014. 46-48-бетлар. (Ziyoev H. History of the Embassy relations of Uzbekistan to Russia through the Caspian Volga and Orenburg (second half of XVI - XIX century). Volume I T. 2014. Pp. 46-48.)

35. Зияев Ҳ. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX асрлар). Тошкент.: Фан, 1965. 79-бет. (Ziyaev H. Asia and the Volga region (XVI century ikkinchi - XIX century). Tashkent.: Фан, 1965. P. 79.)

36. Михалева Г.А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. Ташкент.: Фан,1982. 66-бет. (Mikhaleva G.A. Trade and embassy relations of Russia with Central Asian khanates through Orenburg. Tashkent.: Fan, 1982. P. 66.)

37. Матвиевский.П.Е. О роли Оренбурга в русско-индийской торговле в XVIII в. // История СССР. М., 1969. № 3. 109-бет. (Matviyevsky.P.E. On the role of Orenburg in the Russian-Indian trade in the XVIII century. // History of the USSR. M., 1969. No. 3. P. 109.)